

Mineral o'g'itlar 275 ta vakolatli omborlardan yetkazib berilmoqda

// 22.04.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mineral-o-g-itlar-275-ta-vakolatli-omborlardan-yetkazib-beri>



"O'zkimyosanoat" AJ mineral o'g'itlarni yetkazib berish borasida fermer va dehqon xo'jaliklari bilan hamkorlikda faol ish olib bormoqda. Xususan, mineral o'g'itlarni birjadan sotib olish tartibini fermerlarga tushuntirish, brokerlarga qanday murojaat qilish, mineral o'g'itlarni birja savdolari orqali sotib olish, tiketni korxonaga yetkazish yoki ushbu tiket orqali omborxonadan yuklash xizmatlari tizimi va tartibi tushuntirib borilmoqda.

Natijada joriy yilning birinchi choragida birja savdolariga fizik holda jami 2,6 mln tonna, shundan 2,0 mln tonna azotli, 224,5 ming tonna fosforli va 94,5 ming tonna kaliyli o'g'itlar savdoga qo'yilgan bo'lib, amalda 711,6 ming tonna 2283,5 mlrd so'mlik yoki 27,6 foiz, jumladan 560,0 ming tonna azotli, 89,5 ming tonna fosforli va 62,0 ming tonna kaliyli o'g'itlar xarid qilindi.

Davlatimiz rahbari raisligida qishloq xo'jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida aynan mineral o'g'itlarni yetkazib berish yo'nalishida qator topshiriqlar berilgan edi.

Bu borada fermer xo'jaliklariga qulayliklar yaratish maqsadida kimyo korxonalari tomonidan jami 275 ta 1,7 mln tonna sig'imga ega mineral o'g'it vakolatli omborlari tashkil qilinib, mineral o'g'itlar ushbu omborlardan birja savdolariga qo'yib borildi.

Shuningdek, birja savdolariga mineral o'g'itlarning boshlang'ich narxlaridan o'rtacha 10% gacha pasaytirib xarid qilish auksion tartibida savdoga qo'yish mexanizmi ishlab kelmoqda.

Eslatib o'tamiz, 2024-yildan boshlab joylardagi omborlardan mineral o'g'itni tashishda transportni logistika portalida majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi bekor qilingan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati